Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319883

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

STATISTIKA AMALIYOTIGA KATTA MA'LUMOTLAR, SUN'IY INTELLEKT, GIS TEXNOLOGIYALARI VA MA'MURIY MA'LUMOT MANBALARINI INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI

ISAXOVA VENERA ANSATBAY QIZI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Raqamli statistika yo'nalishi talabasi
veneraisakhova@gmail.com
ZOKIROVA MUNISA JAMOLIDDIN QIZI
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi
munisahusniddinova9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy statistika tizimini transformatsiya qilishda Katta ma'lumotlar (Big Data), Sun'iy intellekt (AI), GIS va ma'muriy ma'lumotlarning o'rni, sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data) asosidagi innovatsiyalarni tijoratlashtirishning global tendensiyalari va iqtisodiy samaradorligini, an'anaviy statistika usullarini modernizatsiya qilishda katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishdagi yangicha yondashuvlar hamda ularni amaliyotga joriy etishdagi mavjud muammolar tahlil qilinadi. Ma'lumotlarni yig'ishning an'anaviy usullaridan innovatsion usullarga o'tishning strategik yo'nalishlari yoritiladi. Birinchi bo'limda ma'lumotlar bozori hajmi, AI texnologiyalariga bo'lgan global sarmoyalar va ulardan olinayotgan iqtisodiy foyda ko'rsatkichlari keltiriladi. Asosiy qismda generativ AI, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va kichik hamda o'rta bizneslar kontekstida innovatsiyalarning tijoratlashtirish strategiyalari, davlat siyosati va bozor mexanizmlari solishtiriladi. Maqola, shuningdek, mamlakatlar o'rtasidagi farqlar, muammolar hamda samarali strategiyalar bo'yicha tavsiyalar beradi. Natijada, AI va Big Data innovatsiyalarini samarali integratsiyalash mamlakat iqtisodiyotida barqaror o'sishga olib kelishi mumkinligi xulosasiga kelinadi.

Kalit so'zlar: Raqamli statistika, Katta ma'lumotlar (Big Data), Sun'iy intellekt, GIS texnologiyalari, Ma'muriy ma'lumotlar manbalari, Ma'lumotlar integratsiyasi, Aqlli statistika, Mashinali o'qitish.

Annotation: This article highlights the role of Big Data, Artificial Intelligence (AI), GIS, and administrative data in the transformation of the modern statistical system. It examines global trends in the commercialization of innovations based on AI and Big Data, as well as their economic efficiency. The study emphasizes the significance of Big Data technologies in modernizing traditional statistical methods. Furthermore, the article analyzes new approaches to data collection, processing, and analysis, along with the challenges of their practical implementation. Strategic directions for transitioning from traditional data

Published: 05.06.2026

Cite this article: Isaxova Venera Ansatbay qizi, Zokirova Munisa Jamoliddin qizi (2026). Statistika amaliyotiga katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt, GIS texnologiyalari va ma'muriy ma'lumot manbalarini integratsiya qilish yo'llari. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319883

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

collection methods to innovative ones are outlined. The first section provides data on the market size, global investment in AI technologies, and the resulting economic benefits. The main body of the work compares commercialization strategies for innovations, government policies, and market mechanisms within the context of generative AI, healthcare, manufacturing, services, and small and medium-sized enterprises (SMEs). The article also addresses cross-country differences, challenges, and offers recommendations for effective strategies. It concludes that the effective integration of AI and Big Data innovations can lead to sustainable growth in the national economy.


Keywords: Digital statistics, Big Data, Artificial Intelligence (AI), GIS technologies, Administrative data sources, Data integration, Smart statistics, Machine learning.

Аннотация: В данной статье освещается роль Больших данных (Big Data), Искусственного интеллекта (ИИ), ГИС и административных данных в трансформации современной статистической системы. Рассматриваются глобальные тенденции коммерциализации инноваций на основе ИИ и Больших данных, а также их экономическая эффективность. Подчеркивается роль и значение технологий Big Data в модернизации традиционных статистических методов. Также анализируются новые подходы к сбору, обработке и анализу данных, а также существующие проблемы их внедрения в практику. Освещены стратегические направления перехода от традиционных методов сбора данных к инновационным. В первом разделе приводятся показатели объема рынка данных, глобальных инвестиций в технологии ИИ и получаемой от них экономической выгоды. В основной части сопоставляются стратегии коммерциализации инноваций, государственная политика и рыночные механизмы в контексте генеративного ИИ, здравоохранения, производства, сферы услуг, а также малого и среднего бизнеса. В статье также рассматриваются различия между странами, существующие проблемы и даются рекомендации по эффективным стратегиям. В результате делается вывод о том, что эффективная интеграция инноваций ИИ и Big Data может привести к устойчивому росту экономики страны.

Ключевые слова: Цифровая статистика, Большие данные (Big Data), Искусственный интеллект, ГИС-технологии, Административные источники данных, Интеграция данных, Умная статистика, Машинное обучение.

Kirish: Raqamli iqtisodiyot davrida ma’lumotlar "yangi neft"ga qiyoslanmoqda. Biroq, bu ma’lumotlar tarqoq va xom shaklda bo‘ladi. Davlat statistika organlari oldida turgan asosiy vazifa — turli xil va ulkan hajmdagi axborot oqimlarini yagona tahliliy tizimga birlashtirishdir. Bu jarayonda integratsiya shunchaki texnik ehtiyoj emas, balki boshqaruv qarorlarining aniqligini ta’minlovchi strategik

zaruratdir. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalari butun dunyoda iqtisodiy va ijtimoiy hayotni tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi global raqamli transformatsiya davrida statistika sohasi tub burilish nuqtasiga keldi. Axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi va tezkorligi "Katta ma’lumotlar" (Big Data) tushunchasini hayotimizga olib kirdi. Agar ilgari statistik ma’lumotlar yillar davomida tanlanma kuzatuvlar asosida yig‘ilgan bo‘lsa, bugun real vaqt rejimida shakllanadigan raqamli izlar (digital footprints) asosiy manbaga aylanmoqda. 2025 yilga kelib, global Big Data va Analytics bozori taxminan 348 miliard AQSH dollari atrofida baholanmoqda. Shu bilan birga, AI texnologiyalari ham bozorlarda muhim transformatsion kuchga aylangan: xalqaro institutsiyalar va tadqiqotchilar AI’ning 2030 yilga borib global iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasi taxminan 19.9 trillion dollar atrofida bo‘lishini prognoz qilmoqda. Tijoratlashtirish innovatsiya yoki tadqiqot natijalarini mahsulot, xizmat yoki biznes modeliga aylantirish jarayoni – AI va Big Data sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bosqichdir. Texnologik kashfiyotlar, algoritmlar, model va server infratuzilmalari hamda katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish hamda foydalanuvchilarga yetkazish strategiyalari tijoratlashtirishning markaziy elementlari sanaladi.



Misol uchun, generativ AI tarmoqlarida McKinsey’ning tahlillariga ko‘ra, bu texnologiyalar turli funktsiyalarda — mijozlar bilan ishlash, marketing, savdo, R&D — 40 foizga yaqin samaradorlik oshishini ta’minlashi mumkin. Lekin har bir davlat va kompaniya bu imkoniyatlardan teng foydalanmayapti. Bozor, infratuzilma, intellektual mulk huquqlari, mehnat kuchi malakasi va qonunchilik muhitining farqlari bu jarayonni murakkablashtirmoqda. Misol uchun, Big Data analytics bozorining o‘sishi Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida yuqori


CAGR (yillik tarkibiy o‘sish sur’ati) bilan kechayotgan bo‘lsa, Osiyo va Afrika kabi hududlarda infratuzilma va malaka jihatidan cheklovlar mavjud. Shu munosabat bilan, ushbu maqolaning maqsadi sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar asosidagi innovatsiyalarni tijoratlashtirishdagi global tajribalarni, iqtisodiy samaradorlikni ko‘rsatuvchi real ma’lumotlarni hamda muvaffaqiyat va muammolarni tahlil qilib, samarali strategiyalar va siyosat yo‘llarini aniqlashdir.

Asosiy qism. Global bozor va iqtisodiy ta’sir 2023–2024 yillarda Big Data va Analytics bozori taxminan 274–348 milliard dollar atrofida baholangan. Bozorda infratuzilma, xizmatlar (cloud computing, real-time analytics, data storage), va AI integratsiyasi segmentlari tez o‘smoqda. Masalan, Fortune Business Insights ma’lumotiga ko‘ra, Big Data Analytics bozorining qiymati 2023 yilda 307,52 mlrd dollarni tashkil etgan, va 2024 da 348,21 mlrd dollarga yetadi deb kuzatilgan. AI texnologiyalarining global iqtisodiy ta’siri ham prognoz qilinmoqda: IDC ma’lumotiga ko‘ra, AI’ning 2030 yilga kelib global iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasi taxminan 19,9 trillion dollar atrofida bo‘ladi. McKinsey esa generativ AI’ning professional xizmatlar, bank sektori, texnologik sektor va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda yillik daromadlarning 2,6–4,5 foizigacha tavani egallashi mumkinligini bildiradi. Generativ AI marketing va savdo sohasida Kompaniyalar mijozlar bilan muloqot, reklama yaratish va sotuv kampaniyalarini avtomatlashtirish orqali xarajatlarni qisqartirish va samarani oshirishmoqda. Masalan, McKinsey tahlillariga ko‘ra, generativ AI marketing, savdo va mijozlar xizmatlari funksiyalarida samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Sog‘liqni saqlash va farmatsevtika Generativ AI yordamida dori moddasi kashf etilishi va klinik tadqiqotlar tezligi oshirilishi mumkin. Masalan, farmatsevtika sanoati daromadlarining 2.6-4.5 foizigacha generativ AI yordamida qo‘shimcha qiymat yaratilishi ko‘rinmoqda.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

Figure 1: AI bilan qanday qiymat o’sishi kutilmoqda?



Manba: PwC tahlili

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish AI va Big Data texnologiyalari smart factory (aqlli zavod), predictive maintenance (oldindan texnik xizmat ko‘rsatish), ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirish va optimal resurs taqsimoti kabi yo‘llar bilan ishlab chiqaruvchilarga samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Ushbu yo‘nalishlarda ishlab chiqarish qiymatini oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkoni paydo bo‘lmoqda.Kichik va o‘rta bizneslar (KOB) Tadqiqotlarga ko‘ra, KOB’lar AI’ni qabul qilgach, daromadlarini oshirish va operatsion xarajatlarini kamaytirishda sezilarli natijalar ko‘rmoqda. Masalan, so‘nggi tadqiqotlarda KOB’lar uchun AI joriy etilishi operatsion xarajatlarni 30% gacha qisqartirishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Geografik axborot tizimi asosiy vazifalari fazoviy geografik ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, boshqarish, tahlil qilish, modellashtirish va tasvirlashdan iborat bo‘lgan mutaxassis tahlilchilar boshqaruvi ostidagi umumlashgan kompyuter tizimidir. Geoaxborot tizimi -bu asosiy vazifalari tabiat va jamiyat hodisalarining geofazoviy ma’lumotlarini maxsus vositalar yordamida to‘plash, saqlash, boshqarish, tahlil qilish, modellashtirish va tasvirlashdan iborat bo‘lgan mutaxassis va tahlilchilar boshqaruvi ostidagi umumlashgan dasturiy tizimdir”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining SIAT statistika integrallashgan axborot tizimi va Qishloq xo‘jaligi vazirligining Geoaxborot tizimi o‘rtasida o‘zaro elektron axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yilishi natijasida qishloq xo‘jaligiga oid bir qator axborotlarni elektron tarzda olish imkoniyati yaratildi. Jumladan, unga ko‘ra, fermer xo‘jaliklariga tegishli yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar viloyat, tuman va konturlar kesimida, ekin maydoniga ekilgan ekin turlari to‘g‘risidagi axborotlarni integratsiya qilish orqali elektron qabul qilish yo‘lga qo‘yildi. SIAT statistika integrallashgan axborot tizimi

va Geoaxborot tizimi o‘rtasida o‘zaro elektron axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yilishi natijasida, olingan axborotlarni fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan statistika hisoboti ma’lumotlaridagi ekilgan ayrim turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlari maydonlariga oid ko‘rsatkichlar bilan solishtirish imkoniyati yaratildi.

Qonunchilik va intellektual mulk huquqi Innovatsiyalarning tijoratlashtirilishi uchun patent, savdo siri, mualliflik huquqi va shartnomaviy huquqlar muhim. Turli mamlakatlarda bu sohada qonunlar va tartib-qoidalarning farqlari tijoratlashtirish samaradorligiga ta’sir qiladi. Ma’lumot markazlari, kompyuter quvvati, tezkor internet, bulut texnologiyalari, va malakali kadrlar mavjudligi – bular hammalari innovatsiyalarni bozorda tezlik bilan joriy etishda asosiy shartlardir. Bozorda mavjud infratuzilma cheklovlari ko‘pincha innovatsiyalarni cheklaydi, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda. Katta ma’lumotlar va AI modellarining ishlashi uchun ma’lumotlar to‘liq, toza va qonunchilikka mos bo‘lishi, shuningdek foydalanuvchilarning shaxsiy hayoti va ma’lumotlar himoyasi bo‘yicha talablar bajarilishi zarur. Ishlab chiqish (R&D), tajriba versiyalari, server va ma’lumot omborlarini tashkil qilish kabi bosqichlar qimmat. Shu bois sarmoyadorlar, davlat grantlari va xususiy sektor hamkorligi muhim. Shimoliy Amerika va G‘arbiy Evropa Bu mintaqalarda AI va Big Data infratuzilmasi rivojlangan, qonunchilik va investor muhitlari qulay. Shunday qilib, tijoratlashtirish bosqichlari tez-tez muvaffaqiyatli amalga oshadi. Osiyo Pasifik: Xitoy, Hindiston kabi davlatlar sohadagi investitsiyalarni ko‘paytirmoqda. Budjetlar va davlat dasturlari orqali sun’iy intellekt rivojiga katta e’tibor qaratilmoqda. Infratuzilma, malaka, ma’lumotlar himoyasi va investitsiya muammolari mavjud. Masalan, Big Data bozori hajmi bo‘yicha Osiyo davlatlari katta o‘sishga ega, lekin ma’lumotlar omborlari, elektr ta’minoti, internet tezligi kabi texnik cheklovlar yevropalik hamkasblariga nisbatan kuchliroq.

Kadrlar tayyorlash: AI, data science bo‘yicha ta’lim va malaka oshirish kurslari tashkil etish. Etika, maxfiylik va ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha normative bazani mustahkamlash. Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar innovatsiyalarini tijoratlashtirish global darajada katta iqtisodiy imkoniyatlarni taqdim etadi. Bozorlar tez sur’atlarda o‘smoqda: Big Data bozorining qiymati 300-350 milliard dollarlar oralig‘ida baholanmoqda, generativ AI esa tarmoqlararo samaradorlikni oshirish orqali yirik foyda yaratadi. AI’ning global iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasi 2030 yilga borib taxminan 19,9 trillion dollar atrofida bo‘lishi kutilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, muvaffaqiyatli tijoratlashtirish uchun nafaqat texnologik jihatlar, balki huquqiy-regulyator, infratuzilma, ma’lumot sifati, moliyaviy resurslar va kadr malakasi kabi sharoitlar ham muhim rol o‘ynaydi. Shimoliy Amerika va G‘arbiy Evropa davlatlari bu borada yetakchilik qilayotgan bo‘lsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar cheklovlarga duch kelmoqda. O‘zbekiston kabi

mamlakatlar uchun davlat siyosati orqali investitsiyalarni rag‘batlantirish, qonun huquqlarini sifatli tashkil etish, ta’lim tizimini moslashtirish va texnologik infratuzilmalarni rivojlantirish muhim yo‘llar hisoblanadi. Natijada, sun’iy intellekt va Big Data asosidagi innovatsiyalarni muvaffaqiyatli tijoratlashtirish nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki raqobatbardoshlik, ijtimoiy farovonlik va global integratsiya nuqtai nazaridan ham salohiyatga ega. Shu yo‘lda davlat, xususiy sektor va ilmiy tashkilotlar hamkorligi orqali stratejik yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur. Yuqorida ta’kidlangan Big Data va sun’iy intellekt imkoniyatlarini amaliyotga tatbiq etish uchun, avvalo, turli ma’muriy manbalardagi tarqoq ma’lumotlarni statistik jihatdan birlashtirish va yagona oqimga keltirish talab etiladi. Ma’muriy ma’lumotlarni integratsiya qilish jarayoni shunchaki texnik ulanish emas, balki murakkab metodologik va tizimli jarayondir. Uni amalga oshirishning bir necha fundamental yo‘llari mavjud. Integratsiyaning muvaffaqiyati turli idoralardagi ma’lumotlarning o‘zaro "tanishi"ga bog‘liq. Jismoniy shaxslar uchun JShShIR, yuridik shaxslar uchun STIR va ob’ektlar uchun kadastr raqamlaridan foydalanish turli manbalardagi tarqoq ma’lumotlarni bitta ob’ekt atrofida birlashtirish imkonini beradi. Bu "ma’lumotlar oroli" fenomeniga barham beradi. Ma’lumotlar almashinuvi inson omilisiz, avtomatik rejimda amalga oshirilishi shart. Zamonaviy statistik registrlarni shakllantirishda turli vazirliklarning axborot tizimlari bilan real vaqt rejimida bog‘lanuvchi interfeyslar (API) yaratilishi ma’lumotlarning dolzarbligini ta’minlaydi. Ko‘pincha ma’muriy organlar ma’lumotni o‘z idoraviy maqsadlari uchun yig‘adilar, bu esa statistik standartlarga har doim ham mos kelmasligi mumkin. Shu sababli, xalqaro tasniflagichlar (masalan, Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha — IFUT) barcha idoralar uchun majburiy etalon sifatida belgilanishi zarur. Bu "ma’lumotlarni tozalash" bosqichida vaqtni tejashga xizmat qiladi. Integratsiya jarayonida ma’lumotlar xavfsizligi eng ustuvor masaladir. Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish va ulardan faqat statistik (shaxssizlashtirilgan) maqsadlarda foydalanishning qonuniy mexanizmlari integratsiyaga nisbatan ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, statistika amaliyotiga katta ma’lumotlar, sun’iy intellekt va GIS texnologiyalarini integratsiya qilish — bu shunchaki texnik vositalarni yangilash emas, balki davlat boshqaruvi va jamiyat tahlilining yangi paradigmasiga o‘tishdir. Ushbu integratsiya statistik ma’lumotlarning "o‘lik" raqamlardan "jonli" va dinamik tizimga aylanishini ta’minlaydi. An’anaviy usullar bilan oylab kutiladigan hisobotlar o‘rnini real vaqt rejimida yangilanadigan raqamli panellar (dashboard) egallashi, qaror qabul qiluvchilarga vaziyatni "bu yerda va hozir" tamoyili asosida baholash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, inqirozli vaziyatlarda va iqtisodiy tebranishlar davrida davlatning moslashuvchanligini oshiradi. Ma’muriy manbalar va sun’iy intellektning uyg‘unligi ijtimoiy adolat

tamoyillarinimustahkamlaydi. Inson omilisiz shakllantirilgan ma’lumotlar bazasi sub’ektiv xatolarni va korrupsion xavflarni minimallashtiradi. GIS texnologiyalari yordamida hududlarning rivojlanish darajasini mikrodarajada (mahalla va ko‘cha kesimida) tahlil qilish, ijtimoiy yordam va investitsiyalarni eng ko‘p muhtoj nuqtalarga aniq yo‘naltirish (targeting) imkoniyatini beradi. Ushbu texnologik transformatsiya iqtisodiy samaradorlikning eng yuqori cho‘qqisidir. Dala so‘rovnomalariga sarflanadigan millionlab mablag‘larning tejalishi va respondentlarga tushadigan yukning kamayishi statistik tizimning nufuzini oshiradi. Ma’lumotlar qanchalik shaffof va ochiq bo‘lsa, xalqaro hamjamiyat va investorlarning mamlakatga bo‘lgan ishonchi shunchalik ortadi.

Yakuniy fikr sifatida ta’kidlash lozimki, kelajak statistikasi — bu faqatgina faktlarni qayd etish emas, balki bashorat qilish san’atidir. Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar orqali ertangi kunning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini bugun ko‘ra olish, har qanday davlat uchun strategik ustunlik hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu texnologiyalarni integratsiya qilish jarayoni nafaqat statistika organlarining, balki butun raqamli hukumatning ustuvor vazifasi bo‘lib qolishi shart. Bu yo‘l — jamiyatning har bir a’zosi manfaati uchun xizmat qiladigan, ma’lumotlarga asoslangan adolatli kelajak sari qo‘yilgan dadil qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. McKinsey & Company, Generative AI holds huge economic potential for the global economy. McKinsey & Company
2. McKinsey & Company, The economic potential of generative AI: The next productivity frontier.
3. IDC, AI’s Transformative Impact on the Global Economy (Forecast 2030).
4. Fortune Business Insights, Big Data Analytics Market Size, Value & Share Analysis [2032].
5. Worldmetrics / Data & Analytics Industry Reports, Big Data Analytics Adoption,
Industry Growth & Statistics.
6. 7. GlobelNewsWire, Global Big Data Markets Analysis Report 2023.
ArXiv, Leveraging Artificial Intelligence as a Strategic Growth Catalyst for Small and Medium-sized Enterprises.
8. Addressing macroeconomic stability and inflation: strategies for anti-inflation and
monetary policies by central banks
https://worldejurnal.ru/index.php/ajmws/issue/view/25
9. Jurayev, U. (2024). TURIZM MOLIYASIDA INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALARNING ROLI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 75–77. https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1027

10. Umidjon, J. (2024). MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA XALQARO
MOLIYA MUNOSABATLARINING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI. University Research Base, 273–276. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/514
11. Jo‘rayev, U. (2024). MOLIYA SEKTORI TASHKILOTLARIDA KORPORATIV
BOSHQARUVNI XALQARO TAMOYILLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. University Research Base, 250–254. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/508
12. ADDRESSING MACROECONOMIC STABILITY AND INFLATION: STRATEGIES FOR ANTI-INFLATION AND MONETARY POLICIES BY CENTRAL BANKS. https://worldejurnal.ru/index.php/ajmws/issue/view/25
13. Jo'rayev Umidjon Shuxratjon o'g'li. (2024). VALYUTA AYRIBOSHLASH REJIMLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 44(10), 123–126. Retrieved from https://newjournal.org/01/article/view/13551
14. Jo'rayev Umidjon Shuxratjon o'g'li. (2024). EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA DAVLATNING ROLI (KANADA MISOLIDA).

DAVLAT BUDJETI, SOLIQ SIYOSATI VA ULARNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI

XAYRUDDINOVA NAZOKAT
BA 204 talabasi
Ilmiy rahbar: Millat Umidi Universiti
Xalqaro biznes va moliya kafedrasi
professerori **UMAROVA M.A.**
mukaddas.umarova@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada davlat budjeti va soliq siyosatining iqtisodiy o‘sishga ta’siri nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Davlat moliyaviy siyosatining asosiy vositalari sifatida budjet xarajatlari va soliq stavkalarining iqtisodiy faollikka ta’siri ilmiy manbalar asosida o‘rganiladi. Xususan, fiskal siyosatning rag‘batlantiruvchi va cheklovchi mexanizmlari, davlat xarajatlari va soliq yukining YaIM o‘sishiga ta’siri statistik ma’lumotlar asosida tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali budjet boshqaruvi va optimal soliq siyosati iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: davlat budjeti, soliq siyosati, fiskal siyosat, iqtisodiy o‘sish, YaIM, davlat xarajatlari, soliq yuki, makroiqtisodiy barqarorlik